


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6471,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 110,0 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 272,8 ming so'mga oshdi va 1695,8 ming so'mga teng bo'ldi, o'sish 107,7 % ni tashkil etdi.




2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 269,6 ming so'mga oshdi.

Xizmatlar faoliyatining xilma xilligi, shuningdek, xizmatlar sohasidagi turli faoliyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ushbu sohaning jadal rivojlanishi uchun omil bo'lib xizmat qiladi.

Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha ko'rilayotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tarkibidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, Internet xizmatlari, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (161,1 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (112,7 %), boshqa xizmatlar (111,1 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (109,2 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (109,0 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (100,6 %), shaxsiy xizmatlar (101,2 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarida (101,6 %) kuzatildi.


**2019-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	6471,3	110,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	335,0	109,0
Moliyaviy xizmatlar	842,6	161,1
Transport xizmatlari	1687,4	103,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1534,9	101,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	197,0	109,2
Savdo xizmatlari	1923,8	104,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	190,8	101,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	232,2	104,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	95,2	105,4
Ijara xizmatlari	215,4	102,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	189,3	100,6
Shaxsiy xizmatlar	281,4	101,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	70,7	112,7
Boshqa xizmatlar	210,5	111,1

Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida transport xizmatlari ulushi 26,1 % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmog'ini kengaytirish, binolar va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni davom etishi bilan bog'liq.


2019-yil yanvar-iyul oylarida asosiy xizmat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, mlrd. so'm



Shu bilan birga, eng yuqori ulush savdo xizmatlari (29,7 %), moliyaviy xizmatlar (13,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,2 %), shaxsiy xizmatlar (4,3 %), shuningdek ta'lim sohasidagi xizmatlarida (3,6 %) kuzatildi.

Transport davlatning hududiy va iqtisodiy birligini ta'minlagan holda yo'lovchilar va yuklarni tashishda zarur bo'lgan ehtiyojlarni qondirib, jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida transport xizmatlarining tarkibi, %




Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 91,0 % ni tashkil etib, boshqa transport faoliyati esa – 9,0 % qayd etildi.

Savdo tarixiy jarayonning eng qudratli omillaridan biri hisoblanadi. Tarixda bunday davr yo'qki, ijtimoiy hayotga uning ta'siri kamroq yoki ko'proq darajada ko'rsatilmagan payti bo'lmagan, mamlakat ichida oddiy ayirboshlash bilan boshlanib va butun dunyo bo'yicha tarqalgan murakkab tijorat operatsiyalari tarmog'i bilan yakunlanadi.

Har xil turdagi savdo munosabatlari doimo ijtimoiy hayotning turli jihatlariga javob beradi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 29,7 % ni tashkil etib, bu 1923,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlarining tarkibi, %



Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uchi – 74,1 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 15,2 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 10,7 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda etakchi o'rinlarni nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 842,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 324,6 mlrd. so'mga oshdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 91,4 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Zamonaviy biznesni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit hozirgi zamon infratuzilmasidan foydalanish hisoblanadi. Yirik bozorlar, Internet-savdo, xom-ashyo, komponentlar va texnologiyalarni izlash, reklama va marketing faoliyati, jarayon va texnologiyalar tizimini boshqarish, shuningdek raqamli tizimlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalari zamonaviy tashkilotning majburiy xususiyati hisoblanadi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 335,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi 109,0 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 97,9 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyot xizmatlari 1,2 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,6 %, boshqa axborot xizmatlari – 0,3 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 232,2 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 104,8 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2019-yil yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 95,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,4 % ni tashkil etdi.



2018-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 109,2 % ni tashkil etdi, hajmi esa 36,9 mlrd. so'mga oshdi va 197,0 mlrd. so'mga etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 78,4 % bilan ustunlik qiladi.


2019-yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 8,8 mlrd. so'mga oshdi, ulushi 21,6 % ni tashkil etdi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

2019-yil 1-avgust holatiga viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 29,8 ming birlikni tashkil etdi, ulardan 19,4 ming birligi xizmatlar sohasiga jalb qilingan, bu 65,1 % ga yetdi.

2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2019-yil 1-avgust holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (37,1 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 11,1 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.

2019-yil 1-avgust holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ga teng bo'ldi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-85-35